

**“ALPOMISH” DOSTONINING IKKINCHI QISMIDA MAYDONGA CHIQUVCHI
OBRAZLAR (“Sarchashma” turkum ko’rsatuvlari asosida)**

Murodova Shahzoda Dilshod qizi

ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Maqolada folklor materiallarini yanada keng tarqalishida ommaviy axborot vositalarining o‘rni beqiyos ekanligiga, ko’rsatuv ma’lum ma’noda o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishganligiga va “Alpomish” dostonining ikkinchi qismida o‘zining muhim o‘rniga ega bo‘lgan qahramonlar va ularning xarakteri, asil mazmun-mohiyati borasida ko’rsatuvdagi fikrlar va ularga munosabat bildirildi.*

Kalit so‘zlar: *Folklor, ko‘makchi qahramon, insiatsiya, cho‘pon, tilla sochli shahzoda.*

Ma’lumki, Mustaqillik yillarida folklor materiallarini nashr etish ham sifat, ham miqdor, ham qamrov jihatdan o’sdi. Jumladan, “O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari” ko‘pjildligining 30 jildi bosmadan chiqdi. Unda har bir doston variantlari bilan berilgan. Dostonning Berdi Baxshi, Po‘lkan baxshi, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li va Saidmurod Panoh o‘g‘li variantlari alohida kitob shaklida chop etildi. Doston folklorshunoslarimiz tomonidan monografik planda keng tadqiq qilindi. Bu borada T.Mirzayev, Sh.Turdimov, J.Eshonqulovlarning tadqiqotlari ahamiyatga molik. “Alpomish” dostonini keng ommaga tanitish, dostondagi millatning milliy qadriyatlarini, turmush tarzi va epik tafakkur hosilalarini o‘quvchiga yetkazish uchun ommaviy axborot vositalaridan ham foydalanilmoqda. Xususan, “Madaniyat va ma’rifat” telekanalida efirga uzatilgan “Sarchashma” turkum ko’rsatuvlari “Alpomish” dostoni tahliliga bag‘ishlangan. Ko’rsatuvda dostondagi mifologik qarashlar, qahramonlarning funksional vazifalari, ramziy obrazlar tahlili keng yoritilib berilgan. Unda doston tahlilini yozuvchi va jurnalist Nazar Eshonqul, uning savollariga atroflicha javob bergan professor Shomirza Turdimov va professor Jabbor Eshonqulovlar ishtirok etishgan. Shuningdek, ko’rsatuv 20 qismdan iborat bo‘lib, ayrim o‘rinlarda O‘zbekiston xalq baxshisi Abdunazar Poyonov dostonidan parcha kuylagan. Ko’rsatuvda “Alpomish” dostoni baxshining badihago‘ylik mahorati va epik tafakkurining yuksak natijasi ekanligi, dostondagi mifologik tafakkurning badiiy tafakkurga aylanishi jarayoni haqidagi fikr-mulohazalar keltirilgan. Dostonni xalqning tarixiy, mifologik hayotining badiiy talqini sifatida qabul qilish lozim. Dostondagi syujet, motiv va obrazlar tizimining mohiyatini ochish bilan uning zamirida o‘zbek mifologiyasining asoslari yotganini aniqlash mumkin.

Dostonning ikkinchi qismida maydonga chiqadigan va o‘ziga yarasha vazifa bajaradigan obrazlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kabi qahramonlarga

Tovkaoyim va Kayqubodlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Boshlovchi Nazar Eshonqulov ko'rsatuv ishtirokchilariga yuqoridagi obrazlarning nafaqat voqealarni yanada dramatik holda ko'rsatish uchun qo'shilgan, balki bu ikki obraz nomlanishidan, ramziy ma'nosidan va bajaradigan vazifasidan kelib chiqib bobosyujet bilan bog'liq obrazlarni yoki baxshi tomonidan kiritiladigan epizodik obrazlarni, deya savol bilan yuzlanadi. Professor Shomirza Turdimov dostonida keladigan bu ikki obraz bobosyujetda o'zak bo'lib turgan obrazlardan ekanligini ta'kidlab ular dostonidagi epizodik obraz sifatida uchraydigan Bektemirdan farqli ravishda dostonida o'z o'rniga ega obrazlardir, deya o'z fikrini bildiradi. Darhaqiqat, agar Tovkaoyim va Kayqubod obrazlari ham dostonida epizodik obraz Bektemir kabi bo'lganida ularga ma'lum vazifa yuklatilmas edi. Ular ikkinchi qismda o'z o'zni va vazifasiga ega obrazlardir. Professor Jabbor Eshonqulov esa bu ikki obrazni dostonidan chiqarib yuborish syujetga sezilarli ta'sir qilishiga, "Alpomish" dostoniga yondosh dostonlarda ham yuqoridagi kabi qahramonlar ishtirok etganiga e'tibor qaratadi. U Kayqubod obraziga alohida to'xtalib, uni ertaklarda uchraydigan kal obrazi bilan bir safda turishini, ularning ko'p qismi ma'lum vaqtdan so'ng tilla sochli yigit yoki shahzodaga aylanuvchi qahramonlar ekanligini ta'kidlab o'tadi. Oddiy odamdan tilla sochli shahzodaga aylanish bosqichlarini maxsus tadqiq etish orqali Kayqubod obrazining ham asil mohiyatini tushunib yetish mumkinligini aytib o'tadi. Jabbor Eshonqulov: "Bu ikki obraz insiyatsiya jarayonini boshdan kechirayotgan yetakchi qahramonga homiy kuchlar tomonidan berilgan ko'makning bir ko'rinishi", - deya o'z fikriga xulosa yasadi. Haqiqatan ham, Kayqubod o'zining xatti-harakatlari bilan Alpomishga ko'maklashadi, qiyin vaziyatlarda yordam bera oladi. Shu jihatdan Kayqubod obrazini dostonida ishtirok etadigan navbatdagi ko'makchi qahramon sifatida talqin etishimiz mumkin.

Boshlovchi Kayqubod obrazining tub mohiyatini yanada ochiqlash uchun, umuman, "cho'pon" istilohining epik talqini qanday ekanligini; dostonning boshqa variantlarida ham Kayqubod kal sifatida tasvirlanishida, aslida uning tilla sochli shahzoda ekanligida va Chinlik deb ta'riflanishida qanday tub ma'nolar mavjudligini so'raydi. Va bunga javoban folklorshunos olim Shomirza Turdimov, dastlab, "cho'pon" istilohining epik talqiniga alohida to'xtalib, uning donishmandga teng deb qaralashini, yerda yurgan g'ayb olamining vakillari sifatida talqin etilishini, dostonidagi har bir obraz jamiyatdagi ma'lum qatlamning tipologik obrazi hisoblanishini, Kayqubodning Alpomishga ko'rsatgan yordamlari zamirida marosimiy mifning ibtidosini ko'rish mumkinligini ta'kidlaydi. Demak, Kayqubod obrazi xuddi Qaldirg'och timsoliga o'xshab, g'ayb olamining vakili, yetakchi qahramonga ko'maklashuvchisi va u oddiy inson emas, uning nomi dostonning birinchi qismida Alpomish cho'ponlar qushxonasida qolganda ham bekorga tilga olinmaydi. Olim Jabbor Eshonqulov doston voqeligida uchraydigan Alpomishning cho'ponlar qushxonasida tunab qolishi va Kayqubodning cho'pon ko'rinishida tasvirlanishida qadimgi turkiy xalqlar tafakkurida chorvachilik bilan bog'liq

madaniyati aks etganidan darakligini aytib o'tadi. Bu obrazning cho'pondan shahzodaga aylanish bosqichida xalq tarixida yangi taraqqiyotning, yangi madaniyatning boshlanganidan belgi borligini urg'u beradi. Bu masalaning bir tomoni, bizningcha, folklorda keng tarqalgan bu obrazning kelib chiqishi uzoq tarixga ega. Bu mavzuni batafsil tadqiq etish orqali xulosa chiqarishimiz mumkin.

Shomirza Turdimov dostonida kelgan bu obrazning folklorda keng tarqalgan qatlamlardan biri ekanligini, bu qahramonning xalq qo'shiqlaridagi, ertaklardagi, dostonlardagi asil mohiyatini anglash orqali uning, nafaqat, epik, balki mifologik va sotsial asoslarining tagiga yetish mumkinligiga e'tibor qaratadi. Qahramondagi kallik bu bir bosqich bo'lib, so'nggi bosqich tilla sochli shahzodaga aylanish jarayoni deb hisoblaydi. Jabbor Eshonqulov esa bu obraz turkiy xalqlarda mukammal tasvirlanganini va buddaviylikning ta'siriga uchraganligini, o'zida bevosita tarixiy jarayonlarni gavdalantirganini, dostonning ikkinchi qismida o'zining muhim ishtirokiga ega qahramonlardan biri ekanini alohida ta'kidlaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, "Alpomish" dostonining ikkinchi qismida maydonga chiqadigan, dostonida o'zining o'рни va o'z vazifasiga obrazlar qatorida Tovkaoyim va Kayqubod obrazlari yaqqol ajralib turadi. Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib, har ikkala obrazning bobosyujetga borib taqalishini, ham sotsial, ham mifologik asosga egaligiga ishonch hosil qilamiz. Kayqubod obrazi esa o'zining asil mohiyati bilan qaralganda, g'ayb olamining vakili ekanini, oddiy kal cho'pon holatidan tilla sochli shahzodaga aylanishida ma'lum tadrijiy bosqichni boshidan o'tkazishini, Alpomishga qiyin vaziyatida yordam berganligi uchun asarda ko'makchi qahramon vazifasini bajarishini, qalmoq taxtiga o'tirishida esa yangi davr boshlanganini ko'rishimiz mumkin. Kelgusida bu ikki obrazlarning genezisi, tarqalishi va o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish orqali yanada tugal xulosalarga kelishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. «Sarchashma» turkum ko'rsatuvı //Эпос - халқ руҳияти калити [20.11.2021] https://www.youtube.com/watch?v=Qpb_9Osodl8
2. «Sarchashma» turkum ko'rsatuvı //Эпос - халқ руҳияти калити [27.11.2021] <https://www.youtube.com/watch?v=qXnaJSaKSR0>
3. «Sarchashma» turkum ko'rsatuvı //Эпос - халқ руҳияти калити [04.12.2021] <https://www.youtube.com/watch?v=Jh7ndhGGqWM>
4. «Sarchashma» turkum ko'rsatuvı //Эпос - халқ руҳияти калити [11.12.2021] <https://www.youtube.com/watch?v=yalNyal4VoE>